



Modern pedagogical trends in teaching English in the process of globalization

Khusnida TUMANOVA¹

Kokand College of Oil and Gas Industry

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 June 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

15 July 2024

Keywords:

globalization,
global language,
English,
science and technology,
technology,
CEFR,
knowledge,
education,
lesson,
method.

ABSTRACT

This article reflects modern pedagogical trends in teaching English in the context of globalization, the importance of using modern technologies in the study and teaching of English.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4-pp235-239>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Globallashuv jarayonida ingliz tili o'qitilishining zamonaviy pedagogik tendentsiyalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

globallashuv,
global til,
ingliz tili,
fan-texnika,
texnologiya,
CEFR,
bilim,
ta'lim,
dars,
usul.

Mazkur maqolada globallashuv jarayonida ingliz tili o'qitilishining zamonaviy pedagogik tendentsiyalari, ingliz tilini o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati aks ettirilgan.

¹ Teacher, Kokand College of Oil and Gas Industry. E-mail: ibroximovkamronbek2@gmail.com

Современные педагогические тенденции преподавания английского языка в процессе глобализации

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

глобализация,
глобальный язык,
английский язык,
наука и техника,
технологии,
CEFR,
знания,
образование,
урок,
метод.

В данной статье отражены современные педагогические тенденции преподавания английского языка в условиях глобализации, важность использования современных технологий в изучении и преподавании английского языка.

KIRISH

Globallashuv – lotincha – “glob” soʻzidan olingan boʻlib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tajjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyorida bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi.

“Global” tushunchasining lugʻaviy maʼnosi nuqtai nazaridan fransuz tilida – umumiy, lotin tilida esa – “globus” – “Yer shari” maʼnolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki maʼnoda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bogʻliq boʻlgan katta muammolarni, “sayyoraviy”, “dunyoviy” muammolarni, global taraqqiyot istiqbollari oʻziga qamrab oladi.

Bugungi kunning yoshlari har tamonlama barkamol, salohiyatli, ajdodlarga munosib avlod boʻlib kamol topishlari uchun chuqur bilimga ega boʻlishlari, jismonan sogʻlom, ruhan tetik boʻlishlari lozim. Chunki kelajak yoshlar qoʻlida. Aynan shu yoshlarni ingliz tiliga oʻrgatish yurtimizdagi dolzarb masalardanadir. Zero, ingliz tili bugungi kunda global til mavqeyiga koʻtarilish bosqichida.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Global til asosan BMT, YUNESKO hamdoʻstlik va boshqa koʻplab xalqaro tashkilotlarda qoʻllaniladi. Global til – bu butun dunyo davlatlari oʻzlarning davlat tillaridan tashqari yana bir tilni oʻrganishi va bu til koʻplab mamlakatlarda bir xil tilni tashkil etishiga tushuniladi. Biz ingliz tilini global til deb olishimizga koʻplab sabablar mavjud. Masalan, ishlab chiqarilayotgan axborot texnologiyalarining tillaridan biri bu ingliz tili, barcha sohalardagi bilimlarning ingliz tilida ham mavjudligi, chet elga sayohat qilmoqchi boʻlganlar, yoki boshqa mamlakatlardagi biznes hamkorlarni qidirishdagi muloqot uchun ham ingliz tili eng asosiy qurol vazifasini oʻtaydi.

Taʼlim jarayonida oʻqituvchilarning oʻz ishlariga aloqador boʻlgan adabiyotlarni asl nusxasini oʻqishida, xorij tajribasini oʻrganishida, oʻz tajribasini yoyishida, xullas, bir soʻz bilan aytganda jaxonga chiqishning yagona yoʻli ingliz tilini oʻrganish va ingliz tilidagi bilimlarni rivojlantirishdan iboratdir.

Har voqea-hodisaning oʻz tarixi boʻlgani kabi Ingliz tilining kelib chiqishi ham oʻz tarixiga ega.

Ingliz tili ham fransuz, nemis va boshqa Yevropa tillari singari lotin tilidan olingan. Bu ko'plab yevropaliklar ingliz tilini o'rganishi qiyin bo'lgan til deb hisoblamasligining sababi bo'lishi mumkin. Shuningdek, ingliz tilining soddaligi uning global tilga aylanishining asosiy sababi ekanligini ta'kidlaydi. Global tilning kamchiliklari shundaki, ilmiy sohada (fanlar bo'yicha) ingliz tili ona tili bo'lmagan xalqlar uchun qiyinchiliklarni taqdim etadi va so'zlovchilari ozchilikni tashkil qilgan tillar uchun (kam odam gaplashadigan) uchun xavf tug'diradi. BBC maqolasiga ko'ra, o'tgan asrda 400ga yaqin til yo'q bo'lib ketgan, agar shu voqea davom etsa, har uch oyda bir til va keyingi asrda barcha tillarning 50 foizi yo'q bo'lib ketish ehtimoli mavjud [1].

Global til yoki xalqaro til sifatida ingliz tilining birinchilardan bo'lib tilga olinishida katta mohiyat mavjud. Chunki, barcha texnologiyalarning tili ingliz tilida, inglizlarning o'qitish tizimi boshqa bir davlatlarning o'qitish tizmidan ustunroq bo'lgani uchun ulardan mashhur olimlar, mashhur kishilar yetishib chiqqan va hozirgi kunda ham butun dunyoga o'z bilimlarini ingliz tilida yetkazib berishmoqda.

Yangi davr hozirgi kun o'qituvchilariga yangi vazifa va bir qancha ma'suliyatlarni yuklaydi. Zamonaviy texnologiyani kirib kelishi bilan ingliz tilini o'qitish an'anasi sezilarli darajada o'zgardi. Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganishning ahamiyati O'zbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori bo'lib bormoqda. Bir qancha ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o'rganishni yangi metod va yo'llarini hayotga tadbqiq qilishmoqda. Bugungi kunda o'qitishning samaradorligini oshirish uchun O'zbekistonda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yangi metodlari joriy qilinmoqda. Misol uchun, multimediya asosida chet tili o'rgatilayotgan o'quvchida to'rt ko'nikmani rivojlantirish, qiziqarli materiallar orqali ham ko'rib, ham eshitib o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari o'quvchi jonli harakatlarni ko'rib ba'zi so'zlarning ma'nosini taxmin qila oladi va uni tushinishga harakat qiladi. Albatta har qanday chet tili darslarida zamonaviy texnologiyalar komputer, radio, CD, DVD qo'llash ta'lim jarayonini yanada olg'a siljib, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni tezroq o'rganish imkonini beradi [2].

MUHOKAMA

Ko'pchilik ingliz tilini global til deb biladi, chunki u dunyoning barcha mintaqalarida aholisining aksariyati gaplasha oladigan va tushuna oladigan tildir. Qolaversa, bu til dunyo miqyosida qabul qilinib va hozirda qo'llab-quvvatlanmoqda.

Texnikum talabalarida ingliz tilini o'rganish ishtiyoqini so'ndirmaslik uchun o'qituvchi dars davomida turli ta'lim texnologiyalaridan, zamonaviy pedagogik metodlardan, yo bo'lmasa kamida komputerdan foydalanishi zarur. Zero, talabalarning yoshiga, qiziqishiga, qobiliyatiga, tilni o'zlashtirishiga qarab tayyorlangan o'quv materiallari albatta talabalarning qiziqishini ortib borishini yanada ta'minlaydi. Talabalarning til bo'yicha murakkab so'zlarni o'rganishida video-filmlar, qo'shiqlar yoki matnlarni eshittirilishi, multimedia, komputerlar orqali namoyish ettilishi talaba bilimini oshirishga xizmat qiladi.

Texnikum talabalarida ingliz tilini o'rganish ishtiyoqini so'ndirmaslik uchun hozirgi CEFR ya'ni Xalqaro Yevropa ta'lim standartlarining talablari bo'yicha quyidagi to'rtta:

- Writing
- Reading
- Listening

– Speaking ya’ni ingliz tilida yozib, o’qib, tinglab, so’zlashib o’rganish kompetensiyalari bo’yicha darslarni olib borilishi ham maqsadga muvofiq deb topilmoqda. Dars jarayonida kasb va mutaxassisliklariga oid video – filmlar, roliklar namoyish qilish va uni muhokama qilish juda samarali usul hisoblanadi. Bunda talabalar kasbiy faoliyatiga tanish bo’lgan lug’at ishlatilishi, yangi va murakkab so’zlar ishtirok etgan bo’lsa so’zlarga izoh berishi, yangi so’zlar bilan bog’liq bo’lgan mutaxassislik mashqlarini bajarib olishlari mumkin bo’ladi. Bu kabi usullar darslarni yanada boyitish, talabalarni til o’rganishga qiziqтира olish, ularning bilimlarini boyita olishga, kelajakda o’z ish faoliyatlarida to’g’ri va o’rinli qo’llay olish natijasiga erishamiz.

NATIJA

Ijtimoiy iqtisodiy o’zgarishlarni amalga oshirmay turib, ta’lim sohasida ham muvaffaqiyatlarga erishib bo’lmazligi to’g’risidagi fikrlar butun global tarmoqlarida isbotlangan. Demak, O’zbekistonning globallashtirish jarayonida ingliz tili o’qitilishining quyidagi zamonaviy pedagogik tendentsiyalarini ko’rsatib o’tish zarur:

– *birinchidan*, ingliz tilini o’rganish tizimini demokratlashtirish, ya’ni ingliz tili o’qitilishida o’qituvchilarning tanlash ixtiyorligiga erishish. (jumladan texnikumda ham);

– *ikkinchidan*, shaxsning ingliz tili bo’yicha ta’lim olish huquqining ta’minlanishi. Har bir ta’lim muassasasida to’liq ingliz tilida o’qitiladigan, sinf, guruxlarni tashkil etish. (jumladan texnikumda ham);

– *uchinchidan*, ta’lim tizida ingliz tilini o’rganishda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning sezilarli ta’sirini pasaytirish, pulli shartnoma asosida taxsil olish o’rniga bepul tugaraklarni ochish va yuritish. (jumladan texnikumda ham);

– *to’rtinchidan*, xilma-xil qiziqish va o’quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan ingliz tilidagi o’quv-tashkiliy tadbirlar ko’lamini orttirish. (jumladan texnikumda ham);

– *beshinchidan*, ingliz tiliga qiziquvchilarning sonini kengayishi va talabalarning ijtimoiy tarkibining o’zgarishiga alohida e’tibor berish. (jumladan texnikumda ham);

– *oltinchidan*, har bir ta’lim tashkilotlari rivojlangan davlatlar tomonidan ingliz tili o’qitilishni moliyalashtiriladigan ta’lim bilan uyg’unligini ta’minlash. (jumladan texnikumda ham);

– *yettinchidan*, ingliz tili ta’lim dasturlarini doimiy yangilash va modernizatsiyalash. (jumladan texnikumda ham);

– *sakkizinchidan*, ingliz tilini “o’rtacha o’zlashtirish”ga yo’nalganlikdan, har bir o’quvchining o’ziga xosliklarini ochish hamda ularning qiziqishi va qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratilishi. (jumladan texnikumda ham);

– *to’qqizinchidan*, rivojlanishida nuqsoni bor bo’lgan bolalarni ham ingliz tilini o’rganishlari uchun qo’shimcha resurslarni izlab topish. (jumladan texnikumda ham);

– *o’ninchidan*, o’quvchilarning kommunikativ malakasini oshirish, ular muloqotning boshqa ishtirokchilari bilan o’zaro muloqot qilish jarayonida turli vaziyatlarda fikrlarni almashishi, til va so’zlashuv normalarini to’g’ri ishlatishi chun pedagogik ta’lim texnologiyalari, AKT va ITlardan unumli foydalanish. (jumladan texnikumda ham).

XULOSA

Bugungi kunda bizning dunyomizda ijtimoiy munosabatlarda katta o’zgarishlar bo’layotgan bir davrda talabalari muloqotning boshqa ishtirokchilari bilan o’zaro muloqot qilish jarayonida turli vaziyatlarda fikrlarni almashishi, til va so’zlashuv

normalarini to'g'ri ishlatishi taqazo etadi. Bunday sharoitda, xorijiy tilning asosiy maqsadi kommunikativ qobiliyatni shakllantirishdir, ya'ni chet tilida shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishni talab etiladi. Zero, til asosiy aloqa vositasi bo'lib, inson tilsiz jamiyatning borligi va rivojlanishini tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-soni Qarorini qabul qilinishi ham ayni mudaodir. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlangani [3] ham bejis emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. International scientific and practical conference "Methodology of teaching foreign languages – innovations, traditions, problems and their solutions" March 15, 2024, B.667
2. Ученый XXI века • 2016 • № 3-3 (16). В. 51
3. Lingvistik ensiklopedik lug'at onlayn (Wayback Machine saytida 2011-09-17 sanasida arxivlangan)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli Qarori.
5. Толибобоева, III. Ж. Инглиз тилини о'qitishdagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari / Молодой ученый. – 2020. – № 19 (309). – С. 581-584.
6. Инглиз тилини о'qitish bo'yicha loyiha ustida ishlash // INR Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi usuli // INR № 2, 3, 2000.